

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA YANGI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING JAMO'A BO'LIB KUYLASH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Toshmatov G'ulomjon Olimjonovich,
Namangan davlat pedagogika instituti,
toshmatovgulom09@gmail.com

Toshtillayeva Rayxona Mirzohid qizi
ART pedagogika kafedrasida v.b dotsenti
Musiqqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqoladada musiqqa madaniyati darslarida yangi innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarning jamoa bo'lib kuylash faoliyatini shakllantirish metodlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada jamoaviy kuylash faoliyatining nazariy asoslari, uning o'quvchilarning musiqiy-estetik, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'рни yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda innovatsion ta'lim yondashuvlari asosida jamoa bo'lib kuylash faoliyatini tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada xor mashg'ulotlarini innovatsion metodlar yordamida tashkil etish, o'quvchilar orasida musiqiy jamoaviylik ruhini shakllantirish va o'qituvchi faoliyatida yangi texnologiyalardan foydalanish tajribasi asosida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: musiqqa madaniyati, jamoa bo'lib kuylash, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv, musiqqa ta'limi, pedagogik va raqamli texnologiyalar, musiqiy faoliyat.

METHODOLOGY OF FORMING STUDENTS' GROUP SINGING ACTIVITY ON THE BASIS OF NEW INNOVATIVE APPROACHES IN MUSIC CULTURE LESSONS

Annotation. This article scientifically and pedagogically studies the methods of forming students' group singing activity on the basis of new innovative approaches in music culture lessons. The article covers the theoretical foundations of group singing activity, its role in the development of students' musical-aesthetic, creative and communicative competencies. Also, a methodology for organizing group singing activity on the basis of modern pedagogical technologies, interactive methods, information and communication tools and innovative educational approaches has been developed. The article also provides scientific conclusions based on the experience of organizing choir classes using innovative methods, forming a spirit of musical teamwork among students and using new technologies in teacher activities.

Keywords: music culture, group singing, innovative technologies, interactive methods, innovation and competency-based approach, music education, pedagogical and digital technologies, musical activity.

МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГРУППОВОГО ПЕВЧЕСКОГО ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ НОВЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье научно и педагогически исследуются методы формирования группового певческого творчества учащихся на основе новых инновационных подходов в уроках музыкальной культуры. В статье рассматриваются теоретические основы группового певческого творчества, его роль в развитии музыкально-эстетических, творческих и коммуникативных компетенций учащихся. Также разработана методология организации группового певческого творчества на основе современных педагогических технологий, интерактивных методов, информационно-коммуникационных средств и инновационных образовательных подходов. В статье также представлены научные выводы, основанные на опыте организации хоровых занятий с использованием инновационных методов, формирования духа музыкального командного взаимодействия среди учащихся и применения новых технологий в педагогической деятельности.

Ключевые слова: музыкальная культура, групповое пение, инновационные технологии, интерактивные методы, инновационный и компетентностный подход, музыкальное образование, педагогические и цифровые технологии, музыкальная деятельность.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol shaxsni tarbiyalash muhim vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati fanining o'rne beqiyosdir. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi san'at turi bo'lib, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, estetik va madaniy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarda musiqiy qobiliyatlar bilan bir qatorda hamkorlikda ishlash, mas'uliyat, intizom va o'zaro hurmat kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Bugungi kunda musiqa madaniyati darslarini an'anaviy usullar asosida tashkil etish o'quvchilarning faolligini to'liq ta'minlay olmayapti. Shu sababli innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu bo'limda

mavzu ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan keng yoritiladi. Musiqa madaniyati darslarida jamoa bo'lib kuylash faoliyatini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning ijodiy, kommunikativ va musiqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Nazariy manbalar, zamonaviy tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida xulosalar chiqariladi.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi - o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, ayniqsa musiqa madaniyati darslarida, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilarda nafaqat ijro mahorati, balki jamoada ishlash, bir-birini tinglash, muvofiqlikda harakat qilish va estetik zavq olish kabi ijtimoiy-psixologik fazilatlar shakllanadi.

Maqolaning maqsadi musiqa madaniyati darslarida yangi innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarning jamoa bo'lib kuylash faoliyatini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali asoslash. Maqolaning vazifalari esa jamoa bo'lib kuylash faoliyatining nazariy asoslarini o'rganish; innovatsion pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini tahlil qilish; musiqa madaniyati darslarida qo'llaniladigan zamonaviy metodlarni aniqlash; jamoa bo'lib kuylash faoliyatini shakllantirish modelini ishlab chiqish; tajriba-sinov ishlari orqali metodikaning samaradorligini aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musiqa ta'limi jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati haqida ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekiston olimlaridan A.Rasulov, N.Xolmatova, G. Mardonova, M. To'xtasinova va boshqalarning ishlarida musiqa madaniyati darslarining metodik tizimi, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish hamda darslarda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari keng yoritilgan.

Masalan, A. Rasulov (2021) o'zining "Musiqa ta'limi metodikasi" nomli asarida musiqa darslarini tashkil etishda o'quvchilarning jamoaviy ijrochilik malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. N. Xolmatova (2020) esa "Musiqa madaniyati darslarida innovatsion yondashuvlar" nomli ishida

o'quvchilarning musiqiy qiziqishini oshirish uchun AKT, multimedia, audio-vizual materiallardan samarali foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

Xorijiy manbalar orasida K. Orff, Z. Kodaly, E. J. Gordon va D. Elliottlarning asarlari alohida e'tiborga loyiq. K. Orff o'zining "Music for Children" tizimi orqali har bir bolada tabiiy musiqiylikni ochish mumkinligini, buni esa jamoaviy o'yinlar, qo'shiqlar va ritmik harakatlar orqali amalga oshirish kerakligini ta'kidlagan. Z.Kodaly esa musiqiy eshituvni rivojlantirishda xor san'ati va jamoaviy kuylashning o'rne beqiyos ekanini asoslab bergan.

Ushbu manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamoaviy kuylash jarayoni — bu shunchaki musiqa o'rganish emas, balki pedagogik, psixologik, estetik va ijtimoiy omillarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab ta'limiy jarayondir.

Musiqa madaniyati darslarida innovatsion yondashuvlarning mohiyati. Hozirgi davrda "Innovatsion texnologiya" tushunchasi ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Musiqa fanida bu tushuncha o'quv jarayonini kreativ, interfaol va texnologik yondashuvlar asosida tashkil etish degan ma'noni bildiradi.

Jamoa bo'lib kuylash - bu o'quvchilarning musiqiy va ijtimoiy rivojlanishida eng muhim shakllardan biridir. Chunki bu jarayonda o'quvchi nafaqat o'z ovozi, balki boshqalarning ijrosini ham eshitadi, ritm, dinamika va intonatsiyada uyg'unlikni saqlaydi. Psixologik nuqtai nazardan, jamoaviy kuylash o'quvchida quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

- o'ziga ishonch va sahna madaniyati;
- emotsional ifoda va estetik did;
- jamoaga moslashuv va mas'uliyat hissi;
- o'zaro yordam, muloqot va hamkorlik madaniyati.

Pedagogik nuqtai nazardan esa, jamoaviy kuylash – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijodiy hamkorlik jarayonidir. O'qituvchi bu jarayonda nafaqat rahbar, balki musiqiy jarayonni tashkil etuvchi, motivatsiya beruvchi va yo'naltiruvchi rolni bajaradi.

Jamoaviy kuylash - bu o'quvchilarning musiqiy-ijodiy hamkorlik faoliyatini rivojlantiruvchi, ularni o'zaro muvofiqlikka, tinglash madaniyatiga va bir-birini hurmat qilishga o'rgatuvchi samarali pedagogik jarayondir. Jamoaviy kuylash orqali

o'quvchilar o'z ovozlari boshqalar bilan uyg'unlashtirishni, ritmik intizomni saqlashni va musiqiy ifoda vositalarini amaliy o'zlashtirishni o'rganadilar.

Jamoa bo'lib kuylash musiqa ta'limining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoaviy kuylash jarayonida har bir o'quvchi umumiy ijro natijasi uchun mas'ul bo'ladi. Natijada o'zaro hamkorlik, tinglash madaniyati va musiqiy eshituv qobiliyatlari shakllanadi. Jamoa bo'lib kuylashda "Innovatsion yondashuv" - ta'lim jarayoniga yangi g'oya, metod va texnologiyalarni tatbiq etishdir.

Musiqa madaniyati darslarida innovatsion yondashuvlar o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ijrochiga aylantiradi. O'quvchilar qo'shiq mazmunini tahlil qiladi, ijodiy topshiriqlar bajaradi va mustaqil xulosalar chiqaradi.

XXI asrda ta'lim tizimining rivojlanishi innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etmoqda. Bugungi globallashtirish sharoitida ta'limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, ijodkorlik va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan musiqa ta'limida ham innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiya atamasi lotincha "*innovatio*" so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, yangilash degan ma'nolarni anglatadi.

Pedagog olim N. Sayidahmedov innovatsion ta'limni an'anaviy ta'limning takomillashgan shakli sifatida baholaydi. Uning fikricha, innovatsion yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchining faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi.

R.Ishmuhammedov innovatsion texnologiyalarni ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metod va vositalar tizimi sifatida ta'riflaydi. Musiqa madaniyati darslarida bunday yondashuvlar o'quvchilarni faol ijodiy faoliyatga jalb qilish imkonini yaratadi.

Hozirgi zamon musiqiy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv eng muhim metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy g'oyasi o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Musiqa madaniyati darslarida

jamo bo'lib kuylash faoliyati quyidagi tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

Kommunikativ kompetensiya. Jamoaviy kuylash davomida o'quvchilar bir-birlari bilan muloqot qiladi, fikr almashadi va umumiy ijroga moslashadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Milliy va vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlarni kuylash orqali o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyati shakllanadi.

Umummadaniy kompetensiya. Musiqa asarlari bilan tanishish natijasida milliy va jahon madaniyatiga oid bilimlar kengayadi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi. Elektron resurslar, audio yozuvlar va multimedia vositalari bilan ishlash jarayonida axborot kompetensiyasi rivojlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan musiqa darslari o'quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatini faollashtiradi.

Bugungi pedagogikada keng tarqalgan nazariyalardan biri konstruktivistik ta'lim nazariyasi hisoblanadi. Mazkur nazariya asoschilaridan J. Piaget va J. Brunerning fikricha, bilim o'quvchiga tayyor holda berilmaydi, balki u tomonidan faol ravishda yaratiladi.

Masalan, o'quvchilarga yangi qo'shiq taqdim etilib, uning mazmuni va xarakterini mustaqil aniqlash topshiriladi. Natijada o'quvchilar musiqani chuqurroq idrok etadi va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi hamda individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, virtual xor texnologiyasi pandemiyadan keyingi davrda keng rivojlandi. Bunda o'quvchilar turli joylarda bo'lsa ham yagona musiqiy loyihada qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Jamo bo'lib kuylash faoliyati hamkorlik pedagogikasining eng yorqin ko'rinishlaridan biridir. Amerikalik pedagog Robert Slavin hamkorlikda o'qitishni o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash orqali o'qitish texnologiyasi sifatida tavsiflaydi.

Jamo bo'lib kuylash mashg'ulotlarida har bir o'quvchi umumiy ijro sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamkorlik texnologiyasi musiqa ta'limi uchun ayniqsa muhim hisoblanadi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, estetik didi, ijodiy tafakkuri va jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Musiqa madaniyati darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning jamoa bo'lib kuylash faoliyatini shakllantirish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodika:

- musiqiy savodxonlikni rivojlantirishga;
- ijodiy faollikni oshirishga;
- jamoaviy hamkorlikni kuchaytirishga;
- estetik tarbiyani takomillashtirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi ishlab chiqilgan metodik tizimning amaliy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat bo'ldi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- o'quvchilarning dastlabki musiqiy tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- jamoa bo'lib kuylash kompetensiyalarini baholash;
- innovatsion texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish;
- olingan natijalarni statistik tahlil qilish;
- metodikaning samaradorlik darajasini aniqlash.

Mazkur bosqichda o'quvchilarning jamoa bo'lib kuylash faoliyatiga oid mavjud bilim, ko'nikma va malakalari aniqlab olindi. Diagnostika quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

Ikkinchi bosqich – shakllantiruvchi tajriba

Bu bosqichda tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan innovatsion metodika amaliyotga joriy qilindi. Mashg'ulotlarda quyidagilardan foydalanildi:

Pedagogik texnologiyalar. kompetensiyaviy yondashuv; STEAM texnologiyasi; gamifikatsiya; loyiha metodi; klaster metodi; rolli o'yinlar.

Raqamli vositalar. multimedia taqdimotlari; audio va video materiallar; karaoke dasturlari; elektron darsliklar; QR-kodli topshiriqlar.

Jamoaviy faoliyat shakllari. xor bo'lib kuylash; kichik guruhlarda kuylash; duet va trio shakllari; musiqiy sahna ko'rinishlari.

Tajriba davomida aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar

Tajriba natijalariga ko'ra jamoa bo'lib kuylash faoliyatini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shartlar muhimligi aniqlandi:

Tashkiliy shartlar. qulay musiqiy muhit yaratish; zamonaviy texnik vositalardan foydalanish; muntazam mashg'ulotlarni tashkil etish.

Didaktik shartlar. innovatsion metodlardan foydalanish; individual yondashuvni ta'minlash; differensial topshiriqlar berish.

Psixologik shartlar. ijobiy motivatsiya yaratish; o'zaro hurmat muhitini shakllantirish; ijodiy erkinlikni ta'minlash.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki Tajriba-sinov ishlari natijasida:

- jamoa bo'lib kuylash faoliyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi;
- baholash mezonlari takomillashtirildi;
- innovatsion metodlar tizimlashtirildi;
- multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi.

XULOSA

Tajriba-sinov ishlari natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlari o'quvchilarning musiqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy, estetik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar esa ushbu faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Musiqqa madaniyati darslarida jamoa bo'lib kuylash faoliyatini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan muntazam foydalanish zarur. Har bir musiqqa xonasi zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlanishi maqsadga muvofiq. Musiqqa o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim. Jamoa bo'lib kuylash

uchun zamonaviy elektron metodik qo'llanmalar yaratish tavsiya etiladi. Musiqa madaniyati darslariga STEAM elementlarini joriy etish zarur. Virtual xor texnologiyalaridan foydalanish amaliyotini kengaytirish lozim. O'quvchilar uchun musiqiy loyihalar va tanlovlar tashkil etish tavsiya etiladi. Maktablarda xor jamoalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Milliy qo'shiqlar repertuarini yosh xususiyatlariga mos ravishda boyitish lozim. Jamoa bo'lib kuylash faoliyatini baholashning yagona mezonlarini amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

61. Botirkhanovich, S. B. (2024). The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 19-22.
62. Toshmatov, G. U. O. (2026). Musiqa ta'limi jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 7(2), 195-201.
63. Abduraimov, S. (2024). METHODS OF USING PRACTICAL METHODS IN MUSIC CULTURE LESSONS IN HIGH SCHOOLS. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(6), 22-25.
64. Abduraimov, S. Z. (2024). MUSIQA TO 'GARAKLARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA MILLIY RUHIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 44-51.
65. Asrakulova, A. (2025). ECONOMIC VIEWS OF ABU NASR FORABI. *Инновационные исследования в науке*, 4(2), 65-68.
66. Nabievna, A. A. (2025). ECONOMIC THOUGHTS OF YUSUF KHOS KHOJIB. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 3(2), 212-214.
67. Jurayeva, G. (2025). TALABALARNING O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK MAHORATLARINI OSHIRISHDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARINING O'RNII. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 535538.
68. Nabievna, A. A. (2025). ECONOMIC THOUGHTS OF YUSUF KHOS KHOJIB. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 3(2), 212-214.
69. Akhmedov, B. (2026, February). TECHNICAL AND EXPRESSIVE ASPECTS OF THE CONDUCTING APPARATUS. In *International Conference on Social Sciences & Humanities (Vol. 2, No. 2, pp. 68-71)*.
70. Ahmedov, B. S. (2026). Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa tinglash jarayonining metodik asoslari. *Science and Education*, 7(2), 182-187.
71. Shokirkhonov, B. (2026, February). DEVELOPMENT OF STUDENTS'PERFORMING AND MUSICAL ABILITIES THROUGH INSTRUMENTS. In *International Conference on Social Sciences & Humanities (Vol. 2, No. 2, pp. 77-79)*.
72. Olimjonovich, T. G., & Komiljanovna, D. G. (2022). The Importance of the Festival "East Songs" in the Introduction and Development of National Classical Music of the Peoples of the East. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 195
73. Tajiboev, E. (2025). ORGANIZATION OF AN OUT-OF-CLASS MUSIC CLUB IN COMPREHENSIVE SECONDARY SCHOOLS. *Развитие и инновации в науке*, 4(2), 13-16
74. Tajiboev, E. (2025). ORGANIZATION OF AN OUT-OF-CLASS MUSIC CLUB IN COMPREHENSIVE SECONDARY SCHOOLS. *Развитие и инновации в науке*, 4(2), 13-16

75. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqa ta'limida STEM texnologiyalari va milliy musiqa integratsiyasi. *Science and Education*, 7(3), 392-395.
76. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqiy mashg'ulotlar orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. *Science and Education*, 7(3), 388-391.
77. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarida ritmik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari. *Science and Education*, 7(1), 960-965.
78. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta'limi orqali bolaga emotsional yondashish tendensiyalari. *Science and Education*, 7(2), 162-168.
79. Joraxanovich, G. J. (2025). XIX ASR OHIRI XX ASR BOSHLARIDA YEVROPADA MUSIQA PSIXOLOGIYASI RIVOJLANISHI. *Научный Импульс*, 4(37), 157-161.
80. Muhammadjon o'g, O. R. A. (2025, December). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARI KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI. In *Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus* (Vol. 1, No. 1, pp. 1156-1159).